

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK ISMLARINING LINGVISTIK
TAHLILI**

TOSHKENT
2023

O'zbek ismlarining lingvistik tahlili. Ilmiy risola. / X. Kadirova – Toshkent: ..., 2022. – ... b.

“O'zbek ismlarining leksik-semantik muamolari” ilmiy risolasi **“O'zbek ismlarining izohli imlo lug'ati va mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi loyihasi**” doirasida bajarilgan ish bo'lib, unda o'zbek ismlarining leksik-semantik muammolari ilmiy tahlilga tortiladi. Ilmiy risola tilshunoslik nuqtai nazaridan o'zbek ismlarning fonetik, leksik, leksikografik va lingvokulturologik xususiyatlari, psixologik jihatlari, qiyosiy aspekti hamda tarjima masalalari yuzasidan xulosalar berilgan.

Ushbu risola Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrasida muhokama etilib, nashrga tavsiya qilingan.

Mas'ul muharrir:

Saodat Muhamedova – *filologiya fanlari doktori, professor.*

Taqrizchilar: *Ф.ф.д. проф. Б.Менглиев*

ф.ф.н. dots. М.Сапарниязова

© **Kadirova X.**

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1. O‘zbek ismlarining fonetik xususiyatlari.....	6
1.1. Fonetik o‘zgarishlarning ism ma’nosiga ta’siri.....	6
1.2. O‘zlashgan ismlardagi fonetik jarayonlar.....	9
2. O‘zbek ismlarining leksik xususiyatlari.....	12
2.1. Ismlarning kelib chiqish masalalari.....	12
2.2. O‘zlashgan ismlarning muammosini yaratuvchi omillar.....	15
3. O‘zbek ismlarining leksikografik xususiyatlari.....	19
3.1. Ismlarning lug‘atlardagi izohi va tartibi.....	19
3.2. Ismlarning lug‘atdagi o‘rinlashuv muammolari.....	22
4. O‘zbek ismlarining lingvokulturologik xususiyatlari.....	27
4.1. Ismlarda evfemisatsiya va disfemizatsiya.....	27
4.2. Ismlarda ijtimoiy munosabatning voqelanishi.....	35
XULOSALAR.....	39
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	42

KIRISH

O'zbek ismlarini lingvistik tadqiq etish bugungi kunda dolzab masalalardan biri bo'lib qoldi. Aytish mumkinki, mazkur muammo jahon tilshunosligida ham keyingi paytlarda tadqiqot obyekti bo'lib¹, bu uning leksik, leksikografik, lingvokulturologik jihatdan o'rganish, muayyan tizimga solish, mezonlarini belgilash muhim masala ekanligidan dalolat beradi. O'zbek tilida ham turli shevalarda, muayyan hudud va jamiyatda turli niyatlar va maqsadlarda qo'yilgan ismlar fonetik, leksik, leksikografik, lingvokulturologik muammolarni yuzaga keltiradi-ki, bu o'zbek tilshunoslari uchun ham bir qator vazifalarni paydo qiladi. Zero, ismlar nafaqat millatning, madaniyatning, balki tilning mavqeini ko'rsatuvchi belgidir.

Risolada arab tilidan kirib kelgan o'zbek ismlarining orfografik, orfoepik, leksik-semantik buzilishlari bilan bog'liq muammolar ko'rsatilgan, bu muammolarga sabab bo'luvchi omillar sanab o'tilgan. Muallif arab tilidan kirib kelgan ismlarni qo'yishda o'zbek va arab imlo qoidalariga rioya qilishni, arab-o'zbek izohli lug'atlaridan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan ismlarning tarixi, ularning lug'aviy ma'nosi hamda idrok etilish bilan bog'liq nutqiy mezonlar tahlilga tortilgan. Xususan, evfemik tabiatli ismlarning disfemalashuviga misollar keltirilib, masalaga oydinlik kiritilgan. Muallif, bunday ismlarni O'zbek ismlari lug'ati tarkibidan olib tashlashni taklif etadi va tasnifiy metoddan foydalangan holda disfemalashgan ismlarni guruhlaydi.

¹Д.М.Голикова Системные связи личных имен христианской традиции через призму онантропомических дериватов. Дисс... канд.фил.наук, Екатеринбург, 2019 год; Белова О. В. Сакральные имена в славянских народно-христианских легендах (имянаречение, переименования и трансформация имени) / О. В. Белова // Этнолингвистика. Ономастика. Этимология : материалы III Междунар. науч. конф. Екатеринбург, 7–11 сентября 2015 г. / отв. ред. Е. Л. Березович. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2015. — С. 30–32. ; Боровикова Н. В. Особенности референции имени собственного-антропонима во французском языке : автореф. дис. ... канд. филол. наук / Боровикова Наталья Владимировна. — СПб., 2012. — 24 с.

Shu ma'noda, turli-tuman ilmiy nazariyalar va o'rganilish tarixiga qaramay, antroponimikaning tizim sifatidagi ma'nosi va tabiati onomastika uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Umuman onomastika va xususan antroponimiya uzoq vaqt davomida til va til nazariyasining periferik elementlari sifatida qabul qilingan². Zamonaviy olimlar uning ko'p jihatdan o'ziga xos bo'lsa-da, semantikaga ega ekanligi va antroponimikaning ba'zi ichki qonuniyatlari borligini tan oladi. Ushbu tizimlilikning tabiati, masalan, bitta nomning tillararo variantlari hisobga olingan cheklovlariga ham bog'liq. Ma'lum bir ijtimoiy qatlamning nomlash tizimi, boshqa oila va sulolalar doirasidagi nom berish tizimlariga xos bo'lmasligi mumkin. Risolada zikr etilgan masalalar bir necha yondashuvda ko'rib chiqiladi. U barcha qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

²Березович Е.Л. Русская ономастика на современном этапе: критические заметки //Известия Академии наук. сер. лит-ры и яз. Т. 60, № 6. Ноябрь-декабрь 2001. С. 34-46.

1. O'ZBEK ISMLARINING FONETIK XUSUSIYATLARI

1.1. Fonetik o'zgarishlarning ism ma'nosiga ta'siri

Ma'lumki, har bir tug'ilgan shaxs dastlab rasmiy individual nominativ belgini – shaxsiy ismni oladi. Turli xalqlar orasida turli davrlarda shaxsning nomlanishi, ismlarning qo'yilishi bilan bog'liq urf-odat va an'analar hamisha o'ziga xos bo'lgan. Shu ma'noda shaxs nomlari avval faylasuflarning, keyin esa tilshunoslarning diqqat obyektiga aylanadi. Bugungi kunda esa inson hayotining hamrohi bo'lib qolgan nominal so'zning paydo bo'lish sabablari, shakllanish bosqichlari, tarqalish, maqsad-muddaosini o'rganuvchi tilshunoslar, tarixchilar, adabiyoshunoslar, psixologlar, etnograflar, geograflar har bir ismning o'ziga xos talqinini e'tirof etmoqdalar³.

Odamlarga nom berishning rasmiy va norasmiy shakllarini farqlash kerak, - deyiladi “Формирование имен и фамилий у различных народов, проживающих на территории Крыма” deb nomlanuvchi maqolada. Unda rus tilida ismlarning deyarli barcha shakllari, xususan cherkov, dunyoviy ismlar variatsiyalashgani xususida so'z boradi va bu shakldoshlik qadimda, cherkovda suvga cho'mish paytida, bolaning ismi ro'yxatga olish kitobida qayd etilganligi: odatda bu cherkovda mavjud bo'lgan taqvim yoki boshqa xizmat kitobining imlosiga rioya qilinganligi qayd etiladi. Metrik yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomani olayotganda, ism yozma nutq me'yorlariga rioya qilinmagan, ko'pincha ota-onalar so'raganidek yoki kotib zarur deb hisoblagan tarzda yozilavergan. Sababi Cherkov kitobi va metrikadagi nom yozuvlari o'rtasidagi nomuvofiqlik jiddiy huquqiy ahamiyatga ega emas edi; ustivor variant cherkovniki edi⁴.


³Картышкина В.М. Личное имя в историческом языкознании // Международный журнал экспериментального образования. – 2014. – № 6-2. – С. 144-145; URL: <https://expeducation.ru/ru/article/view?id=5265>

⁴Аблитарова, Л. Э. Формирование имен и фамилий у различных

O'zbek ismlarida ham variatsiya mavjud bo'lib, bu asosan o'zlashgan nomlarda o'z aksini topadi. Fonetik meyorlarning buzilishi nurq apparatining genetik tuzilishi, noto'g'ri rivojlanishi, ijtimoiy kommunikativ muhit kabi omillar bilan bog'liq bo'lgani uchun (1-rasm) sodir bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Natijada boshqa leksik birliklar qatorida ismlarda ham manodoshlik yuzaga keladi.

O'zbek ismlarining aksariti islom madaniyati bilan kirib kelgan arab nutqiga xos bo'lgani uchun bo'g'iz undoshdari bilan bog'liq tovushlarda yanglishlar ko'zga tashlanadi. Xususan X bilan H tovushlarini hanuzga qadar farqlash mezonlari o'rta-maxsus va oliy ta'limda ishlab chiqilmagan va buning yechimi faqat yod olish bo'lib qolmoqda. Zero, bu harflarning ishtirokidagi leksik birliklar ko'pincha yo forsiy tilga, yo arab tiliga xosligini faqat tilshunoslargina biladi. Oqibatda oddiy odam *Xurshida* ismini *Hurshida* tarzida ifoda etadi va shu shaklda yozadi. Vaholangki, bu ism fors tilidan olingan "quyosh" ma'nosini bildirishini tasavvur ham qilmaydi. Uning bo'g'iz undoshida aylanishi natijasida semantikaga putur yetadi.

1-рasm



Odamlarning nomlari xalqlar tarixining bir qismidir. Ularda xalqlarning turmush tarzi, e'tiqodi, intilishlari, fantaziyasi

народов, проживающих на территории Крыма / Л. Э. Аблитарова. — Текст : непосредственный // Современная филология : материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Уфа, март 2015 г.). — Уфа: Лето, 2015. — С. 19-21. — URL: <https://moluch.ru/conf/phil/archive/137/7511/>

va badiiy ijodi, tarixiy aloqalari o'z aksini topgan.⁵ O'zbek millatining aziz avliyolar, payg'ambarlarga ixlosi o'laroq shaxs nomlarini tanlash mental xususiyatidandir. Bunda Xizr nomi bilan bog'liq ismlarni ham fonetik o'zgarishga uchragan variatsiyalari bilan bog'liq misol tariqasida keltirish mumkin. Ma'lumki Z fonemasi – til oldi dental, sirg'aluvchi jarangli, shovqinli undosh, S ning jarangli jufti. U o'zbek tilida so'zning boshida, o'rtasida va oxirida kela oladi.⁶ Biroq bu tovush qadimgi tarkiy til uchun xos bo'lmaganligi va so'z boshida hech qachon qo'llanilmaganligi nutq a'zolarining irqlik xususiyatlaridan kelib chiqib Z ning D tarzida talaffuz tilishi ko'p yillar davom etgan (Aziz – Adiz). Shu sababli, "Xizr"ning variatsiyasi paydo bo'lib Xidr → Xidir shakliga kelib qolgan va u o'zbek ismlari lug'atidan joy olgan.

Xidirmuhammad	(ar.) — Xidir (Xizr) va Muhammad (s.a.v.) o'z panohida asrasin
Xidirmurod	(ar.) — Xidir (Xizr) yetkazgan, erishtirgan, orzu, armon.
Xidirnazar	(ar.) — Xizr iltifot qilib, nazari tushib erishilgan bola. Xizr nazar qilgan umri uzoq va badavlat bola.
Xidirniyoz	(ar.-f.) — Xizrdan o'tinib so'rib olingan bola yoki Xizrning tuhfası, ehsoni.
Xidirnur	(ar.) — Xizrning mehru shafqatiga sazovor bola, Xizrning qudrati, nuri bilan tug'ilgan bola.
Xidirqul	(ar.-o'z.) — Xizr payg'ambarning ko'magiga muhtoj, uning xizmatkori, quli bo'lgan bola.

Bu ismlarning birortasida ham na imlo jihatdan, na leksik jihatdan o'zbek tiliga muvofiq ekanligini ko'rish mumkin. Zero, Xidir shaxs nomi hech qanday semaga ega emas va u Xizr nomi bilan bog'langan taqdirda ham, mazkur shaxsni ilohiylashtirish, yaratuvchiga (o'z panohida asragulik, yetkazganlik, ehson

⁵Былкова, С. В. Из истории происхождения отечественных имён собственных / С. В. Былкова, В. А. Крат, Ю. Н. Носова. — Текст: непосредственный // Современная филология: материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Уфа, март 2015 г.). — Уфа: Лето, 2015. — С. 28-31. — URL: <https://moluch.ru/conf/phil/archive/137/7425/>

⁶Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, – 2005. B.66

qilganlik, uni qudrati ila bolaning dunyoga kelganligi darajasida) tenglashtirish ham islom, ham (shaxsga sig'inish singari) dunyoviy ta'limotga to'g'ri kelmaydi.

1.2. O'zlashgan ismlardagi fonetik jarayonlar

Keyingi yillarda gender falsafasi avj olganligi va bu o'zbek ismlarida o'z ta'sirini ko'rsatganligi sir emas. Ma'lumki, flektiv tillarda, jumladan arab yoki rus tillarida bu yechim muayyan morfologik ko'rsatkich bilan hal qilinib, undosh tovush bilan tugagan shaxs otlari yoki ismlarga unli tovush qo'yish orqali женский род yasaladi. (*olim-olima; shoir-shoira; поэм-поэтецца; учитель-учительница...*) O'zbek tiliga xos bo'lmagan bu xususiyat asosan, shu tillar orqali kirib kelgan shaxs otlaridagina uchraydi. To'g'ri ismlar lug'atini yaratish muammosi kun tartibida turar ekan, buning leksik jihatlarini o'rganish va lug'atlardagi takrorlarning oldini olish maqsadga muvofiq. *Zero, Maftun-Maftuna, Mahbub-Mahbuba* kabi ismlar hech qachon erkak kishiga qo'yilmaydi. Shuning uchun, ismlarning o'zak qismini qolidirib va uning izohini berish orqali lug'atda takror kelishining oldini olish, ism qo'yuvchiga esa uni gender xosligini o'zgartirish yoki o'zgartirmaslik imkonini berish mumkin bo'ladi.

Muhib	(ar.) – do'st, yo'ldosh, suyukli, mehrlı, mehribon. Shakli: <i>Muhiba</i> – rahmdil, mehribon qiz.
-------	--

Biroq, ayrim hollarda ismlar lug'atida bu shakllarning gender xoslanmaganini ko'rish mumkin. Masalan,

Musin	(ar.) – yoshi ulug', keksa, pir-u badavlat.
Musina	(ar.) – keksalardek uzoq yashasin.

Bunday hollarda arab tili izohli lug'atlaridan foydalangan holda izohlarga aniqlik kiritish, kengaytirish talab etiladi.

Muin	(ar.) – ko'makchi, yordamchi; suyanch. Asli: <i>Muiniddin</i> .
Muina	(ar.) – ko'makchi, xizmatkor, xodima, suyanch, tayanch.

Gender xoslik o'zbek tilida, asosan, qizlarga *xon, bonu, niso,*

buvi, momo kabi, o'g'il bolalarga esa *bek, jon, toy, boy* kabi ko'rsatkich shakllari bilan yasalishi xos. *Mo'min, Mo'mina, Mo'minniso, Mo'mintoy* kabi ismlar o'zbekchalashgan ismlar qatoridan o'rin oladi va bu qo'llanish, nazarimizda, to'g'ri hisoblanadi.

Ma'lumki, tushuncha qayerda paydo bo'lsa, atama ham o'sha yerda paydo bo'ladi va boshqa tilga shu atama o'zlashadi. Biroq fonetik hodilar yuz berishi o'zga til fonetik birliklar va elementlarining fizik-akkustik, anatomik-fiziologik, perseptiv va lingvistik funksional aspektlariga bog'liq. Bu haqda ustoz X. Jamolxonov⁷ o'z tadqiqotida batafsil o'rgangan. Cho'ziqlik, unli oralatish, dinamik urg'u kabi xususiyatlar o'zbek tiliga xos ekan, o'zlashgan so'zlar, albatta, jonli nutqda buzilishga uchraydi. Masalan, *kartOshka* emas, *kartishkA*; *mashIna* emas, *moshinA*... XX asr adababiyoti kuzatganimizda bunday fonetik moslashuvni jadidchilarimizning yozib qoldirgan asarlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan. *Yevropa* emas *Ovrupo*, *rus* emas *o'rus*. Shunday ekan, ismlar borasida ham mana shu o'zbekcha talaffuz saqlanishi va imlo qoidalariga kiritilishi maqsadga muvofiq. Zero, G'ayrat ismi ruscha talaffuzda Gayrat shaklida, Hamlet ismi ruscha talaffuzda Gamlet tarzida istifoda etilishi, millatning til ruhiyatini, qadr-qimmatini, obro'-etiborini oshirganidek, **Oyisha** ismini **Aisha** tarzida ifoda etilishi o'zbek tilining mavqeini tushuradi. Shunday ekan, variatsiyalar tilning leksik qatlamini emas leksigrafik sathini kengaytirishga xizmat qiladi, xolos. Masalan, YA'qub va YOqub ismlari bir xil semantik qatorda bo'lib, uning o'zbekcha ifodasi qulay bo'lgan variantini olib tashlash maqsadga muvofiq.

Miry'a'qub	(ar.-qad.yah.) – qar. Mir va Ya'qub.
Miryoqub	(ar.-qad.yah.) – qar. Mir (Amir) va Yoqub.
Mirzaya'qub	(f.-qad.yah.) – qar. Mirza va Yoqub.
Mirzayaqub	(f.-qad. yah.) – qar. Mirza va Yoqub.
Muhammadya'qub	(ar.-yah.) – qar. Muhammad va Ya'qub.
Muhammadyoqub	(ar.-qad.yah.) – qar. Muhammad va Yoqub.

⁷Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Фан”, 2009 й.

Fonetik muammolar nafaqat o'zlashma so'zlarda, balki nutqdagi nuqsonlar bilan ham bog'liq bo'lib, ismlarni ifodasidagi xilma xilliklarni yuzaga keltiradi va lug'atlarda o'z aksini topa boshlaydi. Natijada, bir xil ma'noli ismlar baydo bo'lib, *qarang (qar.)*, *asli* ishoralarini qo'yilishiga sabab bo'ladi. Ayrim hollarda bu havolalar ikkinchi va uchinchi manzilga ketma-ket yo'llanganining guvohi bo'lamiz. Masalan, **Madi** – (ar.) *qar. Mahdi*; **Muztabar** – (ar.) asli: *Muhtabar*; **Muzir** – (ar.) zarur, lozim; kutilgan, orzu qilingan; ogohlantiruvchi, ehtiyot qiluvchi yoki *qar. Munzir*. Shakli: *Muzira*; **Mayram** – (o'z.) bayram (hayit) kuni tug'ilgan qiz yoki *qar. Maryam*.

Maryam	(<i>qad.yah.</i>) – aynan: juda achchiq, zahar-zaqqum yoki Alloh qadrlagan, sevgan qiz yoxud nomusli, pokdomon qiz. Iso payg'ambar onasining ismi.
--------	--

Bu jarayonni keng quloch yozmasligini oldini olish uchun bel bog'lar ekanmiz, variatsiyalarni lug'atdagi original ism izohida shakllari tarkibidi keltirish maqsadga muvofiq.

Muhib	(ar.) – do'st, yo'ldosh, suyukli, mehrli, mehribon. Shakli: <i>Muhiba</i> – rahmdil, mehribon qiz; <i>Muyiba, Muyibjon</i> .
-------	--

2. O‘ZBEK ISMLARINING LEKSIK XUSUSSIYATLARI

2.1. Ismlarning kelib chiqish masalalari

Mamalakatimiz hududidagi ismlar davrlarga bog‘liq holda yuzaga kelgan deb aytish mumkin. Islom madaniyatining kirib kelishi, ommaga tanilishi, o‘rganilishi yoki avj olishi bilan bog‘liq zamonlar turlicha kechib, shaxs nomlarida u o‘z aksini topgan. “Qutadg‘u bilig”da turkiy hoqonlar: turklar hoqoni, Turklar buyrug‘i, O‘ga buyrug‘i, O‘tikon begi, Yag‘mo begi, Uch O‘rdu xoni, Ili xoni, Bo‘ka yabg‘usi, Ko‘k Ayuq, Alp Er to‘nga tilga olinadi. Ushbu nomlarning barchasi ham real hayotda bo‘lgan, deb bo‘lmaydi. Ammo badiiy adabiyotning obrazlilik tamoyiliga ko‘ra ularning ko‘pchiligi ramziy qahramonlar bo‘lib, asosan geografik nomlardan olingan. Masalan, Ili – vodiy daryosi, O‘tikon – tog‘ tizmasi, Chigil va Yag‘mo – urug‘larning nomi...⁸

Amerikalik tarjimonning asliyatdagi Ila nomini The Chief of Ili Valley, ya‘ni Ila vodiysining boshlig‘i, deb berishi, uning tarixiy manbalardan ana shu nom bilan ataluvchi vodiy to‘g‘risida maxsus ma‘lumot olganligidan dalolat beradi va buni asarning inglizcha nashriga yozgan so‘zboshisida zikr etilganidek izohlaydi.⁹ Demak, ismlarning geografik nomlar, hayvon nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan davrini shunday aniqlashimiz va uni esa daslabki bosqich deb atash mumkin.

“Chaqaloqqa qo‘yiladigan ism uning taqdiriga ta‘sir qiladi, ismlar hosiyatli va hosiyatsiz bo‘ladi deyilgan tasavvurlar davrlar o‘tishi bilan ismlarni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog‘langan, unga doimo va bir umr esh, hamdam bo‘lib yuradigan vositaga aylantira borgan. Shu tarzda «asrovchi ismlar” yoki «himoya nomlari” deb yuritiluvchi nomlar guruhi yuzaga kelgan.”

⁸Yusuf Khass Hajib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes, translated, with an introduction and notes, by Robert Dank-off. – Chicago– London: University of Chicago Press, 1983. – 52 p.

⁹Садиков З. Қадимги туркий реалиялар таржимаси. Монография / Наманган:, «Vodiy Media», 2021. 120 бет.

deydi tarixchi olim Sh. O'ljayeva.¹⁰ Tilshunoslikda u evfemizatsiya deb ataladi. Turkiy xalqlarda nom berishning odatdagi tartib va talabidan tashqari bir nechta sabablarini tilshunos olim A.Omonturdiyev "Professional nutq evfemikasi" nomli kitobida ham sanab o'tagan:

1. Rasmiy nom bilan yashayotgan bola yoki o'smir surunkali kasal bo'laversa, nomi (xususan, Alloh, payg'ambar, avliyo yoki umuman, burjlar nomi bilan atalgan bo'lsa, nomni ko'tarilmadi deb hisoblanib) qaytariladi yoki u kamtarona evfemik bir nom bilan almashtiriladi. Natijada, bola qo'shaloq nom (bir rasmiy, bir evfemik atama)ga ega bo'lib qoladi. Bu nomning ikkinchisi himoyalovchi, saqlovni nom sifatida faollashib ketadi.

2. Oilada bola turavermasa, tug'ilib o'laversa, navbatdagi tug'ilgan chaqaloqqa, o'g'il-qizligidan qat'iy nazar, O'lmas, Tursun, Turg'un, Umrzoq, Sotiboldi, Xudoyberdi, Yashar, Turdiboy, Toshtemir, Bo'ri, Arslon kabi balo-qazodan himoyalovchi, asrovchi, yomon ko'zdan saqlovchi, yovuz ruhlarni chalg'ituvchi ot yoki evfemik atamalar qo'yiladi.¹¹

3. Ayrim sotsial qatlam (masalan, shoirlar) ma'lum maqsad va niyat bilan o'zlariga taxallus tanlaydilar yoki laqab orttiradilar. Bu taxallus yoki laqab bora-bora faollashib, rasmiy atamaga aylanadi. Chaqaloqlikdagi nomi kishilar xotirasidan uzoqlashadi. Hozirgi ko'pgina yoshlar Ulug'bek, Muqimiy, Habibiy, Chustiy, Oybek, Uyg'unlarning asl nomlarini bilmaydilar. Bundan qat'iy nazar, taxallus va laqablar muomala madaniyati rivojiga evfemik nutq taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladi¹². Bu ismlar qatori bugun yanada kengaygan (masalan, Zavqiy).

Shuni aytish joizki, bunday evfemizatsiya boshqa halqlarda ham keng tarqalgan edi. A.Axmetov Amerika, Avstraliya, Osiyo

¹⁰ Ўлжаева Ш. <https://www.facebook.com/groups/246149995752425/posts/330761413957949/>

¹¹ Бегматов Э.А. Исм чиройи. – Тошкент: Фан, 1994. 74-75 Б.; Бегматов Э.А. Номлар ва одамлар. – Тошкент: Фан, 1966.

¹² Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. 27 Б.

qit'asi xalqlari orasida odam ismi berkitilganligini yozadi.¹³ Go'yo uni ochiq aytish odam tanasiga ziyon yetkazadi. Hatto: "– Oting nima?" deyilganda, "– Mening otim yo'q" deb javob berishi, yonidagi urug'doshiga: "– Men uchun sen ayta qol" deb iltimos qilishi Adjibvey qabilasining odati bo'lganligini aytadi.

Lekin bu «Asrovchi ismlar» nafaqat mazmunan ijobiy, chiroyli nomlardan, balki ko'p holda qo'pol, xunuk ma'noli nomlardan tashkil topishi ham mumkin. Vaholangki, bolaga xunuk ma'noli so'zlardan yasalgan ismlarning berilishi chaqaloqni yomon ko'zlardan, ko'z tegishdan asrash, go'dakning dushmani bo'lmish yovuz kuchlarni chalg'itish, aldash maqsadi bilan bog'liqdir. O'zbek ismlari orasida «asrovchi ismlar»ni tarixchi Sh.O'ljayeva quyidagi guruhlarga ajratadi. Ularning ayrimlari quyidagicha:

➤ Sog'lik, uzoq umr tilashini ifoda etuvchi ismlar: Tursun, Turdi, To'xtasin, O'lmas, Yursin, Omonturdi, Turg'un, Turg'unoy, Ergash, Yo'ldosh kabi.

➤ Turli kasalliklarni engishi, chidamli, irodali, mustahkam bo'lib o'sishini orzu qilib qo'yilgan ismlar: Tosh, Toshboy, Toshxon, Temur, Temura, Metinboy, Po'lat, Cho'yonboy, Qilichboy, Xanjara, Halqonboy, Teshaboy, Boltaboy, Mahkam, Mahkamoy, Berk, Berkinoy va boshqalar.

➤ Yashovchanlik, barhayotlik, chidamlilik, uzoq umr ramzi bo'lmish daraxtlar, narsalar nomidan yasalgan ismlar: Chinor, Chinora, Sadaboy, Archaboy, Yovshan va hokazo.

➤ Yoqimsizlik, noxushlik, achchiqlik ramzi hisoblanuvchi narsalar, o'simliklar nomidan yasalgan ismlar: Sarimsoq, So'g'onboy, Piyozbek va shular kabi. Mana shunday ismlar qo'yilsa chaqaloqning dushmani, yovuz kuchlar bolaga yaqinlashmaydi, undan nari ketadi deb hisoblashgan.

➤ Ba'zan ataylab xunuk ma'noli nomlarni qo'yishgan: Yomonbola, Itolmas, Itemas, Kasofat, Shag'alboy, Sabila kabi. Kishilar bola shunday nomlansa e'tiborsiz bo'ladi, unga ko'z

¹³Ахметов А. Туркі Тілдерінден табу мен эвфемизмдер. Алматы: Ғўлўм, 1995. 176 б.

tegmaydi deb hisoblashgan.¹⁴

Bu tasnif tarixiy jihatdan mavjud manbalar asosida amalga oshirilgan bo'lib, lingvokulturologik jihatdan diniy, ijtimoiy, madaniy ziddiyatlarni yuzaga keltirishi tabiiy. Nutqiy vaziyatda bunday ismlar disfemik kayfiyat uyg'otishi, buning natijasida esa ism sohibining ijtimoiy mavqei, psixologik ruhiyati, kelajagi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Hayotiy misol: bir yoshi katta odamning 25 yillik hayoti ismi tufayli achinarli kechadi. 25 yoshgacha uning ismi tug'ilganlik guvohnomasi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatida Tufli deb qayd etilgan bo'ladi. U shu yoshda hujjatni almashtirib Tolib deb o'z ismini o'zgartiradi. Vaholangki, u go'zal, sof o'zbekcha, ota-bobolarimizdan meros bo'lgan Tubli degan ismi bo'lganligidan bexabar. FXDYO xodimning kichik xatosi bir odamning 25 yil kulgi bo'lishiga olib keladi.

2.2. O'zlashgan ismlarning muammosini yaratuvchi omillar

Islom dinining fikx kitoblarida ota-onaning farzandga chiroyli va ma'noli ismlar qo'yishi xususida ko'plab ma'lumotlar keltiriladi. Zero, kelajakda farzand o'z ismidan boshqalar huzurida istihola qilmasligi, tinglovchining idrok etishiga salbiy ta'sir etmasligi muhim hayotiy va ilmiy masaladir. Biroq ismlarning kelib chiqish sabablari turli-tuman, maqsad, sabab va niyatlar bilan bog'liq ekan, uni tizimlashtirish, muayyan qonun qoidarga bo'sundirish muammo bo'lib qolaveradi.

Islom madaniyatining taraqqiy etish jarayonida arab tilidan o'zlashgan so'zlar qatorida ismlar ham o'zbek ismlari lug'atini boyitishga xizmat qilmoqda. Qolaversa, diniy ta'limot rivoji natijasi o'laroq ismlarni o'zgartirish holati bugungi kunda keng avj olmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda muayyan mamlakatning ayrim

¹⁴Ўлжаева Ш. <https://www.facebook.com/groups/246149995752425/posts/330761413957949/>

ismlarni qo'yish bilan bog'liq taqiqlar, ba'zi mintaqalarda biror ismning keng tarqalgani yoki mashhur bo'lgani xususida axborotlarning avj olishi yuqorida zikr etilgan sabablar oqibati deb tushunish mumkin. Biroq arab tilidan bexabar bo'lgan til vakillari, xususan FXDYO xodimlari ismlarni qayd etish jarayonida arab tili grammatik va orfografik qonuniyati, tilning lingvokulturologik xususiyati va nomning ijtimoiy-siyosiy, diniy, tarixiy, etimologik hayoti bilan bog'liq bilimlarga ega bo'lmaganligi oqibatida muayyan omillarga tayanuvchi muammolarni yuzaga keltiradi.

Birinchi omil: Diniy tushuncha va e'tiqodlar bilan bog'liq nomlarni qo'yishga bo'lgan ishtiyoq.

- Allohning nomi, sifatlaridan, uni madh qiluvchi tushunchalar nomidan yasalgan ismlar farzand uchun og'irlik qilishi mumkin degan ibtidoiy aqida bilan unga qo'shimcha ravishda yana ismlarni qo'shib aytish, natijada keng, uzun yoki qo'sh ismlar paydo bo'lishi muammosini keltirib chiqaradi. Ma'lumki, bunday ismlar ayrim hollarda nutq jarayonida qisqa aytilish, chala ifoda etish, adashib ketish, yodidan chiqarish kabi vaziyatlarni taqozo qilishi va kommunikativ muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.

- Payg'ambarlarning nomlari va sifatlarini bildiruvchi so'zlardan yasalgan ismlar (Muhammad, Idris, Ibrohim, Is'hoq, Ya'qub, Muso, Yunus, Iso; Ahmad, Hamid, Mahmud, Rasul, Nabi (y), Komil, Habibulla, Najibulla, Bashir, Mubojir va boshqalar) ni ba'zi hududlarda to'liqsiz shaklda "qul" so'zi bilan istifoda etilish holatlari kuzatiladi. Masalan, *Qulmat*, *Qulmamat* (asli: *Qulmuhammad*); *Irisqul* (asli: *Idrisqul*). *Ibray* (asli: *Ibrohim*), *Ibrohimqul*. Bu esa disfemik kayfiyatni uyg'otib, bugungi kunda ma'naviy-g'oyaviy eskirgan, faqat allohga nisbatan bo'ladigan bu darajani shaxsga, Allohning bandasi, ya'ni o'zi tanlagan quliga qul bo'lishlik sifatini namoyon etadi.

- Xalifalar, ba'zi sahobalar, aziz-avliyolarning nomlariga nisbat berilgan ismlar Abubakr, Siddiq, Umar, Usmon, Ali va boshqalarni ilohiylashtirishga bo'lgan urishish. Masalan, *Ijzali* –

Alining mo'jizasi karomati; *Imodali* – Ali ato qilgan suyanch, madad; Alining ko'magi tufayli erishilgan bola; *Imombaxsh* – Imom ato qilgan, bergan bola; *Imomberdi* – diniy peshvo, muqaddas avliyo ato qilgan bola; *Imombergan*, *Imommurod*, *Imomnafas*, *Imomnazar*, *Imomniyoz*; *Imonali* – Aliga e'tiqod qiluvchi, sig'inuvchi bola yoki imon-e'tiqodli bolani Ali o'z panohida asrasin, *Inoyatali* – Alining himmati, ehsoni, ko'magi kabi ismlar shular jumlasidan.

Ikkinchi omil: imlo qoidalariga rioya qilmaslik. Ma'lumki, arab tilida ko'p tovushlarning ber necha xil variatsiyasi bo'lib, asosan izofalar yordamida turlicha talaffuz etilish xususiyatiga ega. Biroq, ota-onalar nomlarning asliyatdagi shaklidan bexabarligi barobarida o'z farzanlariga qo'yishi natijasida nomlarning turli ko'rinishlari o'zbek ismlari lug'atidan o'rin egallab, bir xil ma'noli va har xil shaklli ismlar ortiqcha joy olish muammosini yaratgan. Masalan, *Iso* – *Iyso*; *In'om* – *Inom*; *Ibodulla* – *Ibodulloh*, *Ibray* – *Ibrohim*, *Is'hoq* – *Ishoq* (tutuq belgisining tushib qolishi natijasida paydo bo'lgan nom); *Iffar* – *Iffat*; *Iymon* – *Imon* va boshqalar.

Uchinchi omil: arab tili izohli lug'atidan foydalanmaslik. Mazkur omil yuqorida zikr etilgan barcha muammolarning boshi desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholangki, 2017-yildan boshlab to'rt jilddan iborat, klassik va zamonaviy arab adabiy va so'zlashuv tilidagi yuz mingdan ortiq so'z va iboralarni, shuningdek, fan, texnika, san'at, va madaniyat sohalariga oid atama va tushunchalarni o'z ichiga olgan «**Al-Qomus**» arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at nashr etilib kelinmoqda. Shuningdek, 60 mingga yaqin so'zdan iborat «**An-Na'ym ul-Kabir**» arabcha-o'zbekcha lug'at («An-Na'ym» arabcha-o'zbekcha lug'atining (Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003) to'dirilgan va tuzatilgan variantidir.) nashr etiladiki, unda avvalgi nashrda mavjud bo'lmagan sakkiz minga yaqin so'z va iboralar kiritilgan. Shuningdek «An-Na'ym» lug'ati tarkibiga kirgan yetti mingga yaqin so'zning yangi ma'nolari kashf etilib, lug'atga kiritilgan, illyustratsiya harakterdagi misollar bilan ma'nolar konkretlashtirilgan. Bu yangi kiritilgan so'zlarning

ayrim qismini arabiy istorizm va arxaizmlar, kishi nomlari va geografik atamalar tashkil etadi. Demak, bunday bilimsizlik manbaaning yetarlimasligidan emas, balki e'tiborsizlikdan kelib chiqadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ism qo'yuvchilar ijtimoiy tarmoq yoki diniy ulamoning og'zaki murojaati bilan qoniqib, arabcha nomlarni o'zbek tilidagi orfoepik va orfografik, leksik va grammatik qoidariga putur yetkazishdek muammoni yuzaga keltirmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda o'zbek tilini asrab avaylash, har jihatdan uni rivojlantirish va o'zga til vakili onggida u xususda to'g'ri tasavvur hosil qilishiga ko'mak berish masalasi kun tarbida turar ekan, tilshunoslarga ismlarni ham ilmiy tadqiq qilish vazifasi yuklatiladi. Zero, xalqning, millatning dunyo miqyosidagi o'rni, mavqei va obro'si nafaqat san'at, iqtisod va turizim kabi sohalar bilan, balki tili bilan ham belgilanadi. Katta yutuqlarga erishilayotgan, turli jabhalarda o'zini ko'rsatayotgan o'zbek farzandining ismini dunyo to'g'ri qabul qilishi va go'zal bo'lishi muhim masala. Demak, uni qonuniylashtirish, tizimlashtirish va bir qolipga keltirish burchimizdir.

3. O‘ZBEK ISMLARINING LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARI

3.1. Ismlarning lug‘atlardagi izohi va tartibi

Qadimiy slovyan shaxs nomlari rus yozma yodgorliklarida keng qo‘llanilganligi qayd etiladi. Bugungi kunda ruscha ism deb tan olinuvchi *Горд, Дружина, Мал, Неудача, Тишина, Черныш, Голуба, Лебедь, Милава, Несмеяна* ismlari shular jumlasidan. Ismlar fondi urf-odatlar va slovyan e‘tiqodlaridan mustasno holatda chegarasiz bo‘lgan.¹⁵ Bu ismlar orasida ayrim nomukammalliklar kuzatilar ekan, shaxs ismlaridagi leksik-semantik muammo faqat o‘zbek tilida esmasligi ayonlashadi. O‘zbeklar ham ism qo‘yishda xol bilan tug‘ilsa “xol” semasi bilan bog‘liq, nori bilan tug‘ilsa “nor” semasi bilan bog‘liq qo‘shimcha sifat beruvchi shakllarni qo‘shib chaqirish urf bo‘lgan. Lekin bu sifatlar ismlar sifatida emas, oila yoki tanish-bilishlar orasida qo‘llaniluvchi o‘ziga xos laqab yoki taxallus singari qabul qilinishi lozim.

Xoldorali	(f.-ar.) — badanida xoli bor o‘g‘ilni Ali o‘z panohida asrasin yoki Alining ismi berilgan xolli bola.
Xolmuhammad	(f.-ar.) – xolli bo‘lib tug‘ilgan bolani Muhammad (s.a.v.) oxiratda shafolat qilsinlar.
Xoldon	f.) — xol bilan tug‘ilgan qiz, xoldor qiz yoki qar. Xoldono.
Xolrahmon	(f.-ar.) — Rahmon (qar.), ya‘ni Alloh bergan xolli bola.

Zero, shaxs nomlari quyidagi turlarga bo‘linadi: ismlar, patronimlar (ota ismi yoki ota avlodga tegishli nom), familiya (sharif), urug‘ni anglatuvchi ismlar (mir, amir, xon, said), laqab, taxallus, kriptonim (yashirin ism) va h.k. Ismlarga qo‘yiladigan talab barchasidan ustivor va qat‘iy. Farzand tug‘ilavergach, boshqa tug‘ilmasin deb *To‘xta*; hadeb qiz farzand tug‘ilavergach navbatdagisi o‘g‘ib bo‘lsin deb *Xotima* ismini qo‘yish orqali shahsga o‘chmas tang‘a qo‘yish bilan masala hal bo‘lmasligini


¹⁵Картышкина В.М. ЛИЧНОЕ ИМЯ В ИСТОРИЧЕСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ // Международный журнал экспериментального образования. – 2014. – № 6-2. – С. 144-145; URL: <https://expeducation.ru/ru/article/view?id=5265>

xalq tushunib yetishi kerak.

Bundan tashqari ayrim ma'nolari o'zgargan, yoki muayyan darajada yo'qolgan leksik birliklar mavjudki ular kishi nomlari bo'lib jamiyat ichida yashaydi. Jumladan,

Xilvat	(ar.) – yolg'iz, yagona; kimsasiz, ibodat joyi.
Xilvatali	(ar.) – Aliga tavof qilish joyi, Aliga sig'inuvchi.
Xirojxon	(ar.) – qarzga, xirojga berilgan qiz.
Xorkash	(f.) – yontoq, o'tin teruvchi, chaqaloqni yomon ko'zlardan asrash uchun shunday nom beriladi.
Xumor	(ar.) — orzu, armon qilib, mushtiq bo'lib yurib erishilgan qiz. Shakllari: Xumorjon, Xumoribibi, Xumoroy, Xumorgul, Xumorxon.
Xushket	(f.-o'z.) – kasallik yaxshilik bilan arisin (ketsin), uzoq umrli bo'lsin.

2-расм




■ boshqa ismlar ■ muhammad ismi bilan bog'liq ismlar

Ismlarning leksik-semantik ma'nosi idrok bilan bog'liq bo'lib, qabul qiluvchi, ifoda etuvchi, tinglovchining psixologik yoki ma'naviy tafakkuri laboratoriyasida qanday jarayonlarni o'tashi va kommunikatsiyada qanday ta'sir o'tkazishi noma'lum bo'ladi. Ismlarning kayfiyat baxsh etishi ham sir emas. Shunday ekan, negativ semalik ismlardan, nomaqbul shakllardan voz kechish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan Muhammad ismi bilan bog'liq shakllar, ya'ni variatsiyalar "M" harfi bilan boshlanuvchi

ismning 17% i tashkil qiladi (2-rasm). Mavjud 2077 ta ismdan 435 tasi Muhammad atamasining shakllaridan iborat (3-rasm). Bular:

Mad bilan boshlanuvchi ism – 42 ta
Mahamat bilan boshlanuvchi ism – 5 ta
Mahmad bilan boshlanuvchi ism – 9 ta
Mahma bilan boshlanuvchi ism – 6 ta
Mahmat bilan boshlanuvchi ism – 1 ta
Mamad bilan boshlanuvchi ism – 20 ta
Mama bilan boshlanuvchi ism – 55 ta
Maman bilan boshlanuvchi ism – 5 ta
Mamat bilan boshlanuvchi ism – 35 ta
Ma bilan boshlanuvchi ism – 2 ta
Mat bilan boshlanuvchi ism – 46 ta
Muhammad bilan boshlanuvchi ism – 209 ta



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ismlardagi leksik-semantik shakllarni kengayib ketishini oldini olish, o'zlashgan ismlarning fonetik xususiyatlarini tadqiq etish va ommaga taqdim etish muhim masala hisoblanadi. Har bir millatning o'ziga xos jihatlari bo'lgani kabi ismlari ham ajralib turishi muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy masaladir. Zero, bu masala jahon tilshunosligida

ancha jadal tus olib, arman, gruzin, nemis, rus, tatar, qoziq, yapon, xitoy, tojik yoki arab singari millatlarning kishisini uning ismi orqali tanish, ularning orfografik, grammatik, etimologik xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, ularni to'g'ri yozish va ifoda etishga intilish kamolotga etgan.¹⁶ Zero, ismlarga berilgan izohlar nomning semasi bilan muvofiq bo'lishi, niyati va maqsadlar hamohang bo'lishi tinglovchi uchun ham, ism egasi uchun ham birdek manfaatlidir. Masalan, Xafs ismiga uch xil ta'rif beriladi: 1. (ar.) arslon, yo'lbars; 2. (f.) xafz – past, tuban, yomon; 3. (ar) hafs – savat.¹⁷ Izohlarning qaysi biri kishining haqiqiy ismi ekanligi o'zi hamda ism qo'yuvchiga ma'lum bo'lib, nutqda, munosabatda turli ma'no kasb etishi muqarrar. Ismlar kishining jamiyatdagi mavqei, kelajaganining yaxshi yoki yomon tomonga o'zgarishini ta'minlovchi eng muhim omil hisoblanadi. U qaysi tilgan olingan bo'lmasin eshitalishi yoqimli, idrok etilishi qulay bo'lishi kerak.¹⁸ Shunday ekan, ayniqsa o'zlashgan ismlarni qo'yishdan avval filologik xizmatdan foydalanish o'rinli.

3.2. Ismlarning lug'atdagi o'rinlashuv muammolari

O'zbek tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli xavflardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashgan ekan, bunday ismlarning yuzaga kelishida qadimiy totemistik, animistik tasavvurlar, ko'hna diniy aqidalar, sig'inishlarning boshqa xil ko'rinishlari, udumlar, keyinchalik esa islom dini ta'limoti bilan aloqador bo'lgan diniy, falsafiy qarashlar,

¹⁶Kadirova X.B. O'zbek ismlarning leksikologik, leksikografik va lingvokulturologik muamolari//Ta'lim fidoyilari. Respublika ilmiy-uslubiy jurnal – 2022. <https://zenodo.org/record/7352033#.Y39iI ZZByUk>

¹⁷Бегматов Э. Ўзбек исмлари. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1998.

¹⁸Kadirova X.B. O'zbek ismlarida evfemizatsiya va uning disfemizatsiyalashuviga oid muammolar. // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, ISSUE 10. Impact Factor: 5.947. ASI Factor = 1.7 October. 2022. https://oriens.uz/media/journalarticles/111_Xurshida_Kadirova_808-819.pdf

e'tiqod va ishonchlar asosiy rol o'ynagan ismlarning lug'at tarkibidan katta sahifani egallashi tabiiy. Biroq ularning aksariyati bugunga kelib xato ekanligi ma'lub bo'lib qolmoqda. Izohlarda keltirilgan matnlar jiddiy tahrirga, arabshunos va islomshunos tadqiqiga muhtoj, ularining g'oyaviy eskirganlari ham talaygina. Xususan, payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ismi yolg'iz qo'llanilmay, aksariyat hollarda boshqa ismlar bilan qo'sh tarzda qo'llanilishi va, afsuski, Muhammad ismining qisqartirilishi XX asrlarda juda avj olgan edi. (*Mad, Mamad*).

Madqobil	(ar.) – qar. Muhammadqobil.
Madrahim	(ar.) – qar. Muhammadrahim.
Madraso	(ar.) – qar. Muhammadraso.
Madrasul	(ar.) – qar. Muhammadrasul.
Madrizo	(ar.) – qar. Muhammadrizo.
Madroziq	(ar.) – qar. Muhammadroziq.
Madumar	(ar.) – qar. Muhammadumar.
Madusmon	(ar.) – qar. Muhammadusmon.
Madvali	(ar.) – qar. Muhammadvali.
Madxol	(ar.-f.) – qar. Muhammadxol.
Madyor//Madiyor	(ar.-f.) – qar. Muhammadyor yoki Muhammadiyor.
Madyunus	(ar.-qad.yah.) – qar. Muhammadyunus.
Madziyo	(ar.) – qar. Muhammadziyo.
Madzokir	(ar.) – qar. Muhammadzokir.

Shu ma'noda Ernst Begmatovning lug'atida katta sahifani egallagan ismlarni endilikda qo'ymaslikning oldini olish uchun, ta'qiqlash masalasini kun tartiba qo'yish vaqti kelgandek, nazarimizda. Chunki, erkalatish, kichraytirish, ulug'lash, nasl-nasabiga ishora qiluvchi qo'shimcha morfologik kursatkichlarni ham ism qo'yuvchining o'z ixtiyorida bo'lishi ko'plap qulayliklarni yaratadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Zero, bu ismlar til vakillarining kommunikatsiya muhitini o'zgarishiga, millatning dunyo nazaridagi munosabatiga o'z ta'sirini o'tkazishdek muammolarni keltirib chiqaradi.

Mo'mincha	(<i>ar.-o'z.</i>) – qar. Mo'min (Mo'min+cha).
Mayramcha	(<i>o'z.</i>) – bayram kuni tug'ilgan jaji qiz.
Mohicha	(<i>f.</i>) – yangi tug'ilgan, jaji oy yoki kenja qiz.

Bu kabi ismlarning davstlabki ko'rinishi qoldirib, qolgan shakllarini izohda berish orqali ixchamlikka, soddalikka erishish mumkin. Masalan:

Mahbub	(<i>ar.</i>) – do'st, yo'ldosh, suyuqli o'rtoq. Asli: Mahbubulla. Shakllari: <i>Mahbuba, Mahbubali, Mahbubbeka, Mahbubjahon, Mahbubjamol, Mahbubniso</i>
--------	--

Shuningdek, qo'sh ismlarning ham sonini ixchamlashtirish orqali kishilarning ijodkorlik va origillak qobiliyatini susaytirish emas, aksincha, tafakkur yo'nalishini oshirish imkonini yaratish mumkin. Masalan, *Muhammad* ismi bilan bog'liq qo'sh ismlarning (*mir, sho, xon, bek, zoda* kabi) nasl va nasabga ishora qiluvchi morfologik ko'rsatkichlar yoki *-illo (-ullo)* (aslida, Alloh) morfemalari bilan takror qo'llanilish holati kuzatiladi. Jumladan, mirlar, xonlar, beklar nasliga mansub kishilar *Rahmat, Rahim, Rajab, Rasul, Roziq* kabi ismiga *mir* ko'rsatkichini qo'shish orqali *Mirrahmat, Mirrahim, Mirrajab, Mirrasul, Mirroziq* ismlari leksik jihatdan R harfi bo'limida o'z o'rga ega bo'lgani holda, M harfi bo'limida ham o'z aksini topadi¹⁹. Xuddi shunday "Sho" ko'rsatkichini olgan ismlar o'zak qismda boshlanuvchi harflardan tashqari Sh bo'limida ham o'rin egallaydi. Agar *-ali, -qul* qo'shimchalari qo'shilsa u yana takrorlanadi, erkalatish, kichraytirish (*Bahromcha, Mohicha, Muborcha, Mo'mincha*), erkalash ulug'lash uchun qo'shilgan affikslar bo'lsa, unda qayta takrorlanadi. Masalan,

Maqsad	(<i>ar.</i>) – istalgan, orzu qilingan yoki maqsad-murodli bola.
Maqsadali	(<i>ar.</i>) – orzu qilib tug'ilgan bolani Ali o'z panohida asrasin.
Maqsadgul	(<i>ar.-f.</i>) – orzu-armon qilib erishilgan guldek go'zal qiz.
Maqsadjon	(<i>ar.-o'z.</i>) – istagimiz, orzumiz bo'lgan suyuqli qiz.
Maqsadmurod	(<i>ar.</i>) – maqsad-murodli bola.

¹⁹Begmatov E.A. **O'zbek ismlari ma'nosi:** (Izohli lug'at). — T.: «O'zbskistoi millii ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007 — 608 b.

Maqsadoy	(ar.-o'z.) – orzu, armon qilib erishil- gan oydek suluv qiz.
Maqsadqul	(ar.-o'z.) – qar. <i>Maqsad</i> (Maqsad+qul).
Maqsadxon	(ar.-o'z.) – orzu. armon bilan erishilgan baland martabali qiz.

Shu ma'noda, har xil tipdagi ismlar, avvalo, leksik ma'no anglatuvchi va morfologik qo'shimcha izoh, niyat yoki nasl nasabga ishora qiluvchi belgilar asosida tasniflanishi va lug'atlardagi pozitsiyasini belgilash maqsadga muvofiq, deyish mumkin. Xususan, *Saidumarxon* ismi qaysi harf bo'limida o'rinlashshuvi uning asosiga qarab belgilanishi muhim. Zero, tarixiy shaxs Umarning payg'ambarimiz yaqinlaridan bo'lganligi va mazkur shaxsga ixlos etib, sevib, shu insondek bo'lishi niyat qilib qo'yilgan ismga saidlik nasli, martabasi qo'shimcha ma'no sifatida qaralishi va uni S harfi bo'limidan olib tashlanishi, Umar ismiga izoh berilganda, shu ismning shakllari qatorida *Saidumar*, *Saidumarxon*, *Mirumar*, *Mirzaumar*, *Shoumar* kabi variantlarini sanab o'tilishi joiz bo'ladi.

Til madaniyati omma ongida birday shakllanmagani qanday tabiiy hol bo'lsa, ism qo'yilishdagi oqsashlar shunday silliq kechadi. O'zbek xalqi tarixida ismlarga jiddiy e'tibor berilganligini Abu Ali ibn Sinoning ismi orqali misol keltirish mumkin. Mohiyatan, dunyo tanigan bu so'zlar jamlanmasida anglashilayotgan shaxsning ismi yo'q. Alining otasi Sinoning nabirasi qabilida istifoda etilishida yuksak madaniyat negizini ko'rish mumkin. Ajdodlarni ulug'lash, ismiga nisbatan hurmatsizlik qilishdan ehtiyot bo'lish, nasl-nasabiga urg'u berish kabi maqsadlar zaminimizda ham keng tarqalgan va XIX-XX asrlargacha ham iste'molda edi. Oilada otasi, onasi yoki bosh farzandlarning ismi bilan chaqirishda ma'no va yuksak madaniy axloq yotadi. Bugunga kelib nasl, urug' tushunchalar o'z leksik ma'nosini yo'qotib, shunchaki go'zal, quloqqa yoqimli eshitalishga erishish madaniyati keng tus olib, mantiqsiz, ma'nosiz ismlar dunyo yuzini ko'rmoqda. *Mirsaid*, *Mirxo'ja*, *Abdusaidxon* kabi ismlar faqatgina qo'shimcha ko'rsatkichlardan iboratligi, ehtimol, faqat tilshunoslar uchun

ma'lum ekanligini inobatga olgan holda shuni aytish kerakki, uni jiddiy tadqiq etish va tartiblash dolzarb masalalardan biridir. Chunonchi, qo'shismlilik urfi bugun madaniyat belgisi sifatida shunchalik faollashib ketdiki, u tilshunoslar ongida ham ko'nikma hosil qilib, lug'atlar tarkibidan ham o'rin egallay boshladi. E.Begmatov o'z kitobida²⁰ hattoki *Mo'chchi* ismini ham keltirib, o'zbekchadan *nozik, nafosatli, zebo qiz*, deya ta'rif beradi. Hech qayerda qayd etilmagan bunday ma'no tilshunosning o'z talqini ekanligiga shubha yo'q. Nazarimizda, bu taqlidiy so'z bo'lib, vohada tez-tez qo'llanib turuvchi *muchchi* (поцелуй)ning bir shaklidir. Bu ma'noni laqab turkumiga kiritish, ism sifatida qayd etmaslikni lingvomadaniy tadbir deb qabul qilish o'rinli.

Har bir millatning o'ziga xos jihatlari bo'lgani kabi ismlari ham ajralib turishi muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy masaladir. Zero, bu masala jahon tilshunosligida ancha jadal tus olib, arman, gruzin, nemis, rus, tatar, qoziq, yapon, xitoy, tojik yoki arab singari millatlarning kishisini uning ismi orqali tanish, ularning orfografik, grammatik, etimologik xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, ularni to'g'ri yozish va ifoda etishga intilish kamolotga yetgan. Shunday ekan, o'zbek ismlari ham ana shunday jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'lishida kuch sarflarishimiz darkor.

²⁰Begmatov E.A. **O'zbek ismlari ma'nosi:** (Izohli lug'at). — T.: «O'zbskistoi millii ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007 — 608 b.

4. O'ZBEK ISMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

4.1. Ismlarda evfemisatsiya va disfemizatsiya

2022-yil boshida «Silive.com» nashri dunyo mamlakatlarida qo'yilishi man etilgan ismlar ro'yxatini e'lon qildi.²¹ Unda ushbu ismlarning qanday sabablarga ko'ra taqiqlangani ham aytilgan. Qayd etilishicha, keltiriladigan ismlar bir hudud uchungina tegishli hisoblanadi.²² Zero, ismlarning qo'yilish maqsadlari va uning ta'qiqlanish sabablari o'zaro ziddir. Ismlar evfemik niyatda qo'yilgani bilan idrok etuvchining disfemik kayfiyatini uyg'otishiga zamin yaratishi mumkin. Shuning uchun bunday ismlarni lag'atdan olib tashlash, FXDYO xodimlari esa ism qo'yuvchiga tushuntirish ishlarini olib borishi, filologik xizmatdan foydalanishni tavsiya etishi kun tartibidagi masala bo'lishi kerak. O'zbek ismlari ro'yxatidan olib tashlanishi kerak bo'lgan nomlarning ayrimlarini guruhlashga harakat qilamiz. Jumladan,

a) **tarkibida “qul” morfemasi bo'lgan ismlarni umuman ro'yxatdan olib tashlash** (Allohga nisbatan “abdu” shaklidagi “qul” so'zi bundan mustasno). Ma'lumki, mintaqamiz hududida birgina “I” bilan boshlanuvchi ismlarda *Ibrohimqul, Idrisqul, Ilashqul, Ilyosqul, Imomqul, Imonqul, In'omqul, Irisqul, Ishoqqul, Iskandarqul, Islomqul, Ismanqul, Ismatqul, Ismoilqul, Isoqul, Istakqul, Istamqul, Izomqul* kabi nomlar uchraydiki, ularning hammasida birinchi bo'lakka nisbatan qullikni anglatuvchi izohlar keltiriladi. Islom dinida esa Allohdan o'zgaga hech bir kimsaga (hatto payg'ambarlarga ham) yoki narsaga qullik qilinmasligi haqida aytilgan. Qolaversa, bu g'oyaviy-mafkuraviy eskirgan tushuncha bo'lib, bugungi kunda, ayniqsa, islom madaniyati, **ta'limi avj olgan** pallada qo'llanilishi mantiqsizlik, desak mubolag'a

²¹<https://zamon.uz/uz-to/detail/dunyoda-qoyish-taqiqlangan-ismlar-royxati-ochiqlandi-lifestyle>

²²<https://www.silive.com/data/2022/05/you-cant-name-a-baby-sarah-in-morocco-some-illegal-baby-names-around-the-world-according-to-data.html>

bo'lmaydi.

Shuningdek, nafaqat tarkibida “qul” bo'lgan ismlarni, balki shu ma'noni ifodalovchi *Ibod*²³ nomi bilan bog'liq *Ibodulla* ismidan tashqari barcha ismlar (*Iboda, Ibodali, Iboddin, Ibodiddin*)ni ham o'zbek ismlari lug'atidan olib tashlash muammosini ko'tarib chiqishimiz ham kerak, degan xulosaga kelamiz.

b) turli madaniyatdan kirib kelgan serial qahramonlari ismlarini ta'qiqlash va uni ismlar ro'yxatidan olib tashlash.

2015-yilda Tojikistonda chaqaloqlarga serial qahramonlari ismini qo'yishning ta'qiqlanish masalasi ko'tariladi. Tojikcha ismlar reyestri mamlakat prezidenti Emomali Rahmon tashabbusi bilan kiritilgan “bolalarga milliy qadriyatlarni inobatga olgan holda ism tanlash taklifi” asosida qonuniy kuchga ega normativ hujjat sifatida qayd etiladi. Qayd qilish muassasalari ta'kidiga ko'ra, ba'zi otanonalar o'z farzandiga tojikcha bo'lmagan ismlarni tanlar ekanlar, ismning kelib chiqishi tarixi, nima ma'noni bildirishini hatto bilmaydilar ham.²⁴ Bu muammo hatto siyosiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin. Zero, «Silive.com» nashri e'lon qilgan ismlar ro'yxati ana shunday maqsadga ega. Masalan, **Garri Potter**. Ismning ma'nosi: romanlardagi xayoliy sehrgar bilan bog'liq. Taqiqlanish sababi: ism bolani masxara qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Yoki Saudiya Arabistoni: **Amir**. Ismning ma'nosi: knyaz. Taqiqlanish sababi: saudiyaliklar farzandlariga qirollik oilasiga tegishli ismlarni qo'ymasligi kerak. Saudiya Arabistoni: **Malek**. Ismning ma'nosi: shoh. Taqiqlanish sababi: bu ism faqat qirollik oilasi a'zolari uchun mo'ljallangan. Germaniya: **Usama bin Laden**. Ismning ma'nosi: «Al-Qoida» sobiq rahbarining ismi. Taqiqlanish sababi: haqoratomuz. Yaponiya: **Akuma**. Ismning ma'nosi: shayton. Taqiqlanish sababi: bolani masxara qilishdan himoya qilish. Germaniya, Malayziya, Meksika va Yangi Zelandiya: **Adolf Gitler**. Ismning ma'nosi:

²³Ibod - (ar.) – ayn. qullar; bandalar, mo'minlar; “abd” – qul so'zining ko'plik shakli.

²⁴<https://sputniknews-uz.com/20151204/1234705.html>

fashistlar Germaniyasi rahbarining ismi. Taqiqlanish sababi: haqoratomuz. Ko'rinadiki, bunday masalada ehtiyotkorlik lozim. Bunda disfemik idrok muammosi yuzaga kelmoqda. Ta'qiqlanish esa yanada a'lo tadbir.

c) **ismlarning qisqartirilgan shaklini ro'yxatdan o'chirish.** "Ismlarimizning aytilishi, hujjatlarda yozilishi haqida chuqurroq fikrlash lozim, – deydi T.Eshbek o'zining "O'zbekning yomoni bo'lmaydi" kitobida. – Taniqli olim Ernst Begmatovning «O'zbek ismlari»²⁵ kitobi bu borada munosib qo'llanma bo'libdi. Kitobning 600-betida shunday yozilgan: «Ismlar va ularning milliy shakllariga loqaydlik bilan munosabatda bo'lish ba'zi o'zbekcha nomlarning ruscha buzilgan shaklini «ijod qilish»da ham ko'rinadi. Natijada ba'zi ota-onalar o'z farzandlarining, yoshlar esa o'z do'stlari, o'rtoqlarining, aka-ukalar yo opa-singillarining ismlarini Alik (Alisher, Ahmadjon), Gulya (Gulnora, Gulandom), Dilya (Dilbar, Dilorom)... shakllarida buzib aytishadi. Bunday nombozlik, nombuzarlik harakati ona tiliga, qolaversa, rus tiliga ham hurmatsizlikdir»²⁶. Jurnalistning mushohada va olimning ishiga bo'lgan munosabati o'rinli. Biroq, rus tilidagi bunday qisqartmalar ham, aytish joizki, evfemizaçiyaning oqibatidir. A. Ahmetov ruslarda bola yoshligida Kolya, Sasha, Misha ulg'ayganida esa Nikolay, Aleksandr, Mixail deb atalishini evfemik yondashuv deb hisoblaydi. Bunda so'zning quvvati va sehri borligi, ulg'ayganlarida uni o'zgartirish orqali umrni uzaytirish niyati, maqsadi borligini tushuntiradi. Yangi nom hayotni qayta boshlashga imkon beradi deb ishonganliklarini aytadi.²⁷

Mamlakatimiz hududida, bugungi kunda kamayib borayotgan bo'lsada hali-hanuz **Muhammad (s.a.v.)** atamasining

²⁵Бегматов Э. Ўзбек исмлари. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1998.

²⁶Тўлқин Эшбек. <http://uchildiz.uz/%D0%B8%D1%81%D0%BC%D0%B%D0%B0%D1%80-%D0%B6%D0%B8%D0%BB%D0%BE%D1%81%D0%B8/>

²⁷Ахметов А. Туркі Тілдерінден табу мен эвфемизмдер. Алмати: Ғўлўм, 1995. 31-33 б.

ism tarkibidagi **mamat**, **mat** shakllari uchrab turadi. *Irismat*, *Ismat*, *Ismatyor*, *Isomamat*, *Isomat*, *Ismatmirza*, *Ismatqul* shular jumlasidan.

b) *tarkibida "it" ma'nosi bo'lgan ismlarni o'zbek ismlari ro'yxatidan olib tashlash*. Birliklardagi disfemik ma'no faqat muayyan makon va zamon bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi va shu asosda idrok etilar ekan, disfemik ma'no, evfemizmlarda bo'lgani kabi asosan etnik stereotiplar bilan bog'lanadi va belgilanadi. Bu ismlar, tinglovchi nuqtai nazarida insonning itga mengzalishidek disfemik taassurotli bo'lishi mumkin. Garchi nutqiy xarakterga ega bo'lsa ham, bir denotativ mazmun ifodalovchi evfemik va disfemik birliklarni o'zaro qiyoslash asosida ularning nisbiy evfemiklik va disfemiklik qiymati baholanadi. Demak, mazkur birliklarga munosabat bildirganda nisbiylik tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiq.²⁸ Masalan, **Itboy** (o'z. – itdek arzimas bola. Bu ism chaqaloqqa u yomon ko'zlardan uzoq bo'lsin, unga ko'z tegmasin deb beriladi), **Ityemas** (o'z. – "bu bolani tashlasang, it ham emaydi, u shunchalik yomon, jirkanch" degan ma'noda beriluvchi ism. Bu bilan chaqaloqni o'limdan asrash ko'zda tutiladi), **Itjon** (o'z. – itdek arzimas bola. Bolaga ko'z tegmasin degan ma'noda qo'yiladi), **Itolmas** (o'z. – "bu bolani hattoki it ham olmaydi, uning hech kimga keragi yo'q", deyilgan ma'noda qo'yiladi. Bu bilan bolani ko'z tegishidan, bevaqt o'limdan asramoqchi bo'lishadi) ismlari denotatida mazkur ism egasiga nisbatan tinglovchining disfemik munosabatini uyg'otuvchi "it" so'zi xalaqt beradi va kormmunkauiya jarayoniga o'z salbiy ta'sirini o'tkazish imkonini tug'diradi.

Shu o'rinda turli davlatlarda bolalarga qo'yish mumkin bo'lmagan ismlar ro'yxatini yodga olish joiz. Unga ko'ra:

1. Yangi Zelandiyada bolaga «Qirolicha», «Gersog»,

²⁸Qodirova X. O'zga tilli guruhlarda mental xususiyatga ega evfemizm va disfemizm hodisalarini tushuntirishning muhim jihatlari. // O'zbek tilini ikkinchi va xorijiy til sifatida o'qitish masalalari: muammo, yechim, istiqbollari. ToshDO'TAU, Respublika ilmiy-amaliy anjuman metriallari. – Toshkent, 2020 yil, 20 may.

«Malika» va boshqa shu kabi ismlarni qo'yish taqiqlangan.

2. Kaliforniyada bolaga Xose dib ism qo'ysangiz uni an'anaviy (José) urg'usiz yozishga to'g'ri keladi. Bu yerda harf ustiga yoki ostida hech qanday diaktrik belgi qo'yish mumkin emas.

3. Islandiyada Kleopatra (Cleopatra) ismini qo'yish mumkin emas, chunki Islandiya alfavitida «C» harfi yo'q.

4. Germaniyada bolaga Lord ismini qo'yish mumkin emas. Chunki ba'zi chet tillarda Lord so'zi «Parvardigor» deb tarjima qilinib, xudoning ismlaridan birini angalatadi. SHuningdek, Lyuçifer ismini qo'yish ham mumkin emas.

5. Xitoyda islomiy, belgisi va lotin harflaridagi ismlar qo'yish mumkin emas.

6. Meksikaning ayrim hududlarida bolangizga Facebook ismini qo'ya olmaysiz.

7. Isroilda hech qaysi bolaga Xudo deb ism qo'yishga ruxsat berilmaydi.

8. Ispaniyadada Iuda deb ism qo'yish mumkin emas.

9. Rassel — Norvegiyada 1990 yilda voz kechilgan ismlardan biri.

10. Daniyadan Maymun ismli hech kimni uchratmaysiz.

11. Vengriyada Stiven (Stefan) ismini qo'yish mumkin emas.

12. Shvetsariyada yozuvda bitta J harfli bilan anglatiluvchi ism qo'yish mumkin emas.

13. Avstraliya ism sifatida Bishop (Yepiskop) va Saint (Avliyo) so'zlaridan foydalanish mumkin emas.

14. Uelsda bolaga Sianid deb ism qo'yish mumkin emas.

15. Italiyada Juma (Friday) deb ism qo'yishga ruxsat berilmaydi.²⁹

Bizni 11 raqamli Daniya madaniyati o'ziga jalb etdi. Bu ro'yxatda O'zbek tilida, O'zbekiston yoki o'zbek millatida "it"

²⁹<https://daryo.uz/k/2019/01/23/turli-davlatlarda-bolalarga-qoyish-mumkin-bolmagan-ismlar/>

ma'nosi bor bo'lgan ismlar ta'qiqlanadi degan raqam bo'lishi kerak. Zero, tinglovchining irqi, dini, madaniyati, urfi va idrok etish darajasi o'zbek millatining ism qo'yish maqsadini anglay olmaydi.

c) ***disfemik kayfiyat uygotuvchi ayrim nozik mavzulardagi nomlarni o'zbek ismlari ro'yxatidan olib tashlash.*** Tarixchi olim Sh.O'ljayevaning ism qo'yilish sabablariga ko'ra amalga oshirilgan tasnifida biz nazarda tutayotgan muammo yo'q. Yuqorida zikr etilgan bandlardan tashqari yana:

➤ Ism qadimiy diniy e'tiqodlarga asoslanib ko'kka (osmonga) — Oy, Kun (Quyosh) va boshqa osmoniy jismlar qudratiga sig'inish asosida qo'yilgan: Oybuvi, Oyxon, Oyqiz, Yulduz, Hulkaroy, Cho'lponoy, Oyparcha, Oymanglay, Kunxon, Kunboy, Quyoshbek, Oyto'ldi, Kuntug'di, Oytug'di, Tangriberdi, Tangribergan va hokazo.

➤ Kishilar qadimiy davrlardan beri ba'zi nodir metallar, ma'dan, toshlar, masalan, dur, zumrad, oltin, la'l, marvarid, marjon, lojuvard, yoqut va boshqalar chaqaloqni kasalliklardan, balo-ofatlardan asraydi deb bilishgan. Mana shu e'tiqodga ko'ra bolalarga (ko'proq qiz farzandlarga) Durdona, Durbek, Zumrad, Gavhar, Oltinoy, Marvad (Marvarid), Equtoy, Marjonbibi, La'lixon kabi ismlar berilgan. Keyinchalik bu nomlar go'zallik, nafasat, azizlik, qadr-qimmat ma'nolarini ham ifodalaydigan bo'lgan.

➤ Muqaddas deb ulug'langan hamda sig'inilgan ba'zi hayvonlar, jonivor, qushlarning nomlaridan yasalgan ismlar: Bo'riboy, Bo'riniso, Boybo'ri, Qashqirboy, Shag'alboy, Arslon, Yo'lbars, Qarchig'ay, Lochin, Burgut va hokazo³⁰lar ham o'zbek ismlari lug'atidan o'z aksini topgan. Bizningcha bunday ismlarda evfemik va disfemik muammolar mavjud emas. Biroq hozirgi kunda "farzand tug'ilgach, unga yaxshi bir ism qo'yish ota-onaning burchi"ni ado etish uchun shariat qolib bid'atlarga ergashadiganlar ko'payib ketdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, arab tilidan

³⁰Ўлжаева III. <https://www.facebook.com/groups/246149995752425/posts/330761413957949/>

kirib kelgan ***Ishqiya, Ishrat, Ishratxon*** ismlari evfemik va disfemik birliklari giperbolasining minus qutbiga tushib qolish ehtimoli kuchayadi. Leksik jihatdan muhabbat, mehr-muabbat sohibasi, lazzat, quvnoqlik, baxtiyorlik, shodlik semalariga ega bu nomlar turli niyatdagi tinglovchilarning ongida turlicha idrok etilishi bilan havflidir. Shuningdek, **Iffat, Iffatbibi, Iffatbonu, Iffatjamol, Iffatoy** kabi aksariyat qizlarga qo'yiladigan ismlar ham teskari ma'no ifodalanishga xosligi bilan ajralib turadi.

Darhaqiqat, tilning ichki resursida ham bunday almashinuv sodir bo'lishi endilikda sir emas. Buni biz o'zbek tilidagi "bokira" so'zi bilan tahlil qilishimiz mumkin. Bu tushunchaning tabu varianti tilimizda yo'qolib ketgan bo'lib, arabchadan olingan "dastlabki meva" ma'nosini beruvchi "bokira" leksemasi uni yumshatish uchun qo'llanilgan. Endilikda bu so'zni eshitgan odam uchun uning yashirin ma'nosi sir bo'lmay evfemiklik xususiyatini yo'qotib, "er ko'rmagan", "turmushga chiqmagan" ma'nolari ostida tabu o'rnini sekin-sekin egallamoqda. Tabuning o'zini qo'llash esa disfemiyani yuzaga keltiradi. Xuddi shunday "jonon", "do'ndiqcha" so'zlarini ham olish mumkin. U fohishaga nisbatan – evfemik; tarbiyali, to'g'ri hayot kechiruvchi ayol uchun disfemizmdir.³¹

Shu o'rinda, ruslardagi "как корабль назовеш, так он и полывет" degan iborani yodga olish o'rinli. Ismlar kishining jamiyatdagi mavqei, kelajaganining yaxshi yoki yomon tomonga o'zgarishini ta'minlovchi eng muhim omil hisoblanadi. U qaysi tilgan olingan bo'lmasin eshutilishi yoqimli, idrok etilishi qulay bo'lishi kerak. Evfemik niyatlar, ijtimoiy sabablar jamiyat umumqabul qilingan qoidalariga, yozilmagan lingvokulturologik qonunlarga bo'ysunishi kerak. Ismning go'zalligi faqat bir til egalari uchun go'zal bo'lishi kerak emas. Zero, o'zbek millatining yutuqlari natijasida ismlari ham dunyo oynasida o'z aksini topmoqda. Biz o'zbek ismlarini eng go'zallarini farzandamizga

³¹Кадилова Х. Проблемы перемены эвфемизмов и дисфемизмов в художественном переводе. // ELMÍ IŞ beynəlxalq elmi jurnal, AZƏRBAYCAN, Baku, 2021.St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>

qo'yishimiz darkor. Bundan tashqari, xalq orasidagi "chaqaloq tug'ilganda ko'ziga nima ko'rinsa shuni ism sifatida qo'yilgan"ligi haqidagi asoslanmagan tasavvur va taxminlar yo'q emas. Ana shunday ibtidoiy tasavvurlarni jahon miqyosida tarqalib ketmasligi uchun bu ishlarni amalga oshirish muhim masaladir. Zero, mazkur jarayon o'zbek millatida biroz go'zalroq tusga ega. Ma'lumki, odob-axloq me'yori talabiga ko'ra, qadimdan turmush o'rtog'i, qaynota-qaynonasi va boshqa qarindoshlarning nomini tilga olmaslik, o'zi ijod qilgan maxsus laqab-efvemik nom bilan murojaat etish – Markaziy Osiyo xalqlarida urf. Xususan, o'zbek oilalarida turmush o'rtoqlarini bosh farzand nomi bilan atash bugungi kunga qadar saqlangan. «Mehrobdan chayon» romanida buning o'ziga xos ko'rinishiga duch kelamiz:

Ra'no I (Nigor oyim) Maxdum to'nni yoruqqa solib ko'rdi: – Yo'q, adras hayf, Ra'no, – dedi to'nni taxtiga solib, – haligi bo'zni beravur. (MCh – 80)

Ra'no II (Solix maxdum) – Hay, Ra'no! – dedi havlida ketib borg'an maxdumg'a, – nonlarimizning suvi qochqan, xamir qilishg'a vaqt oz, bozordan issig' non oldirasizmi? (MCh – 80).

Har ikki hodisa (evfemizm va disfemizm) ham okkazional xarakterga ega bo'lib, ular mudom o'zgarib turadi, doimo yangi. Faqat disfemizmdan farqli o'laroq, evfemizm vaqt o'tib, lisoniy birlikka aylananish xususiyatiga ega va, shu bilan birga, o'z evfemik xususiyatini ham yo'qota oladi. Bu tez-tez qo'llanish sababidan amalga oshadi. O.D.Pastuxova aytganidek, vaqt o'tishi bilan yoqimsiz narsalar evfemizatsiyasi samarasiz bo'ladi, chunki ular biron bir nozik mavzuni tasvirlashda kutilmaganda aytilganda o'z ma'nosining ravshanligi va aniqligi bilan quloqqa yoqimsiz eshitila boshlaydi.³² Disfemizmlar esa ortofemaga aylanmay, salbiy kuchida qolish bilan xarakterlanadi.³³

³²Пастухова О.Д. От эвфемизма к дисфемизму. // Слово, высказывание, текст в когнитивном, прагматическом и культурологическом аспектах. Материалы VIII Международной научной конференции, Челябинск, 20-22 апреля 2016 года. Из-во: Энциклопедия. С. 329-331

³³Кадилова Х. Проблемы перемены эвфемизмов и дисфемизмов в

4.2. Ismlarda ijtimoiy munosabatning voqelanishi

O'zbek ismlari turli tomondan o'rganilib ularni sayqallash, tahrirlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Zero, millatning go'zal amallari, jahon oynasidagi harakatlari ismi bilan monand bo'lishi katta ahamiyatga ega. O'zbeklarning ism tanlashi ko'p jihatdan farzandga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi. Aksariyat hollarda bu o'gil yoki qizga bo'lgan munosabatdan paydo bo'lgan qarashlardir.

Ma'lumki, gender munosabat jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Farzand tug'ilganda oiladagi gender munosabat ism tanlashda ham ahamiyati katta. Bu inson jinsining ijtimoiy-madaniy jihatini ifoda etuvchi tushuncha ekan, uning ismlarda aks etishi muqarrar. Oiladagi turmush tarzini yengillatuvchi jins – erkak va quvoch baxsh etuvchi qiz muvozanati ijtimoiy shart-sharoitlar tufayli buziladi va oxir oqibat ism tanlashda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oilada qiz farzand tug'ilavergach, agar u 2 tadan oshsa, keyingilariga o'gil tushunchasi bilan bog'liq ismlarni qo'yish boshlanadi. Gender muvozanat nafaqat maishiy masalada balki ijtimoiy mavqe, daraja, g'urur bilan bog'liq kechinmalarda ham o'z aksini topadi. Shuningdek, nafaqat otalar, balki onalar ham o'gil farzand ko'rganda bir pog'ona ko'tarilgandek, o'zlarini boshqalardan ustun bo'lgandek his etishni boshlaydi. Chunki o'gil himoyachi, o'gil jangchi, boquvchi, suyanch sifatida idrok etiladi. Bu esa G.E.Gryunebaumning mulohazalarini eslatadi: "Johiliyat davrida, ya'ni Islomgacha Arabiston yarim oroli aholisi o'rtasida ayolning hech qanday o'rni ham, qadr-qimmatini ham yo'q edi. Bu holat farzandning tug'ilishidan boshlanardi. Oilada o'gil bola dunyoga kelsa, sevinishar, xursandchiliklar qilishar, qiz tug'ilsa esa oilada motamsarolik hukm surib, tezda farzandni

художественном переводе. // ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal, AZƏRBAYCAN, Baku, 2021.St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>

yo'qotish payiga tushishar edi. Ayolning eri oldidagi qadri erining molichalik emasdi. Johiliyat zamonida arab erkaklari ayol bilan bir xonada o'tirishmas, birga ovqatlanmasdilar. U davrda arablar uch narsada: otda, ayolda, uyda xosiyat yo'q, deb ishonishardi³⁴

Bu ibtidoiy qarashlarning kichik elementlari yillar o'tsada qondan qonga o'tib, ulkan davrni bosib o'tib bizga qadar yetib kelganligini ayrim hududlarda qo'yilayotgan ismlardan anglash mumkin. So'zning kuchi, uning psixologik ta'siri *o'g'il* tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ismga ega qizlar esa *o'g'il* bola xarakter-xususiyatlarini beixtiyor o'zlarida mujassam etadi. Ehtimol, hanuzgacha chekka qishloqlarda; ma'naviy, ijtimoiy, psixologik, diniy ta'limotlar yetarli bo'lmagan joylarda shu kabi ismlar chaqaloqqa qo'yilib kelinmoqda. Masalan, E.Begmatovning o'zbek ismlari lug'atida *O'g'il* so'zi bilan boshlanuvchi 53 ta ism keltiriladi. *Bu qutli qizdan keyingisi o'g'il bo'lsin; oliy nasabli bu qizdan keyingisi o'g'il bo'lsin; bu qizdan keyin o'g'il bersin, Alloh o'g'il ato qilsin; ushbu e'zozli qizdan keyingisi o'g'il bo'lsin; bozor kuni tug'ilgan bu qizdan keyingi farzand o'g'il bo'lsin* kabi izohlar bilan ***O'g'ilbaxt, O'g'ilbegi, O'g'ilbeka, O'g'ilbersin, O'g'ilbibi*** singari ismlar lug'at tarkibidan o'rin oladi.


Inson xulq-atvorining o'ziga xosligi, ijtimoiy jins sifatida shakllanishi uning tug'ilganida olajak ismlari bilan muayyan darajada bog'liq ekan, jamiyatda "erkaklarga xos" yoki "ayollarga xos" xususiyati bilan o'zi va boshqalar ongi ostidagi tasavvurda me'yoriy holga aylanib boradi. Bu tasavvur o'zbekona shashti baland, jangovar ruhli, jo'shqin xarakterli, chavandoz, so'zi o'tkir To'maris, Barchinoylar yurtiga yarashadigan xislat sifatida qaror topadi. "Kishilar o'z jinsiga muvofiq ijtimoiylashuvida madaniy muhit katta rol o'ynaydi. Zero, madaniy muhitgina erkak va ayolning qanday bo'lishi lozimligini taqoza etadi".³⁵

_____ Ism qo'yishdagi ikkinchi munosabat – tug'ilgan farzandni

³⁴Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (660-1258). М.: 1986. С.13.

³⁵Уразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент: 2009. – 136 б.

oldinroq o'lgan farzand bilan solishtirish, tenglashtirish yoki mavqeini tushirish (balki ko'tarish) o'qibatida paydo bo'lgan qarashlar sifatida namoyon bo'ladi. Bu yuqoridagi munosabatlardan ham ko'ra xunukroq, qo'polroq va yoqimsizroq vaziyatni yuzaga keltiradi. Zero, birovning evaziga, o'zidan olidingi farzandni doimo, butun umr, hayoti davomida eslatib turadigan ismi bor har qanday odam ham o'zining shaxs sifatidagi kechinma va tuyg'ularini ocha olmay, kimdir uchun, ko'proq, ota-ona uchun, nobud bo'lgan, tug'ilmay qolgan farzand dog'ini eslatib turuvchi tamg'a, o'tib ketgan o'sha farzandning soyasidagi, fonidagi, xotirasidagi imzo sifatida yashaydi. Ehtimol, ism egasi mazkur narsalar haqida o'ylamas, biroq bir umr kemtik yashashi, kimgadir o'zini tanishtirganda, bir soniya bo'lsada, o'z ismining tarixini eslashi, suhbatdoshning unga bo'lgan munosabatini ong ostida tasavvur qilishi orqali o'zini yetarlicha namoyon qila olmaydi. Bular "O'rin" so'zi bilan boshlanuvchi ismlarga ham tegishlidir. O'zbek ismlari lug'atida shunday ismlar 17 tani tashkil etadi. Bu esa O' bilan boshlanuvchi ismlarning 8% idir. *O'rinbadal, O'rinbosar, O'rinxol, O'ringul, O'rintosh, **O'rinqo'zi kabi imlar*** "oldingi vafot etgan bolalar evaziga, o'rniga kelgan bola; avvalgi turmagan bolalar evaziga berilgan bola" izohlari bilan tavsiflanadi.



Uchinchi xil munosabat o'zbeklarning turmush tarzini o'zgartirishga intilishdan paydo bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Odatda farzand tug'ilganda xarajatlar ko'payadi, mas'uliyat oshadi va tug'ilgan boladan umid qilinadi. Kishining yomon kunlar bilan emas yaxshi kunlar bilan bog'liq ismi muloqot samarasini oshirishi ilmiy tahlil qilinishi kerak. Chunonchi, o'zbek ismlari qatorida **O'nglasin** (o'z. – Alloh ishimizni o'nglasin), **O'lpon** (o'z. — o'tmishda yer solig'i), **O'gshuk** (o'z. qad.t. – tuyaning bir xili, 2 yoshli tuya) kabi ismlar ham borki, shu ism egalari nimaningdir evaziga, nima uchundir qarzdor bo'lib yashashga majburdek.

Ijobiy kayfiyatni uyg'otuvchi, "o" bilan boshlanuvchi ismlar qatoriga tarkibida **O'roz** so'zi mavjud ismlarni qo'shish mumkin. Bu ro'za oyi bilan bog'liq ismlar turkumi bo'lib, yaxshilik bag'ishlovchi, xurchandchilik ato etuvchi muhitni, ijobiy kommunikativ sharoitni yaratishi bilan ahamiyatli. O'zbek ismlari lug'atida mazkur ismlar 37 xil ko'rinishga ega. Biroq bu variatsiyalar jonli bo'lmog'i, lug'at tarkibida uning faqat o'zak qismi qolmog'i darkor. Zero, lug'at kishi ongini bir qolipga solib qo'yishi, ijodkorlik xususiyatini so'ndirib qo'yishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy tafakkur millat ruhini yo ko'tarishga, yoki tushirishga xizmat qilar ekan, tug'ilajak bolalarga mazmun-mohiyati bolaning kelajagiga ta'sir qilishini inobatga olib ko'taringki ismlarni qo'yishimiz kerak. Buning uchun esa, xalqimiz ongini ma'naviy-ma'rifiy, diniy-axloqiy, psixologik, ijtimoiy-siyosiy, lingvokulturologik bilimlar bilan boyitish chorasini izlash siyosiy tus olmog'i darkor. Shundagina millatimiz tafakkurida gender ustunliklar, farzand ajratishlar kamayadi, buning oqibatida esa ismlarni to'g'ri qo'yilishiga erishiladi. "Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlarning me'yoriy tizimi vujudga keladi"³⁶.

³⁶Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент: 2009. – 136 б.

XULOSALAR

1) To'g'ri ismlar lug'atini yaratish muammosi kun tartibida turar ekan, buning leksik jihatlarini o'rganish va lug'atlardagi takrorlarning oldini olish maqsadga muvofiq.

2) Ma'lumki, tushuncha qayerda paydo bo'lsa, atama ham o'sha erda paydo bo'ladi va boshqa tilga shu atama o'zlashadi. Biroq fonetik hodilar yuz berishi o'zga til fonetik birliklar va elementlarining fizik-akkustik, anotomik-fiziologik, perseptiv va lingvistik funksional aspektlariga bog'liq.

3) Turli xalqlar orasida turli davrlarda shaxsning nomlanishi, ismlarning qo'yilishi bilan bog'liq urf-odat va an'analar hamisha o'ziga xos bo'lgan. Shu ma'noda shaxs nomlari avval faylasuflarning, keyin esa tilshunoslarning diqqat obyektiga aylandi.

4) O'zbek ismlarida variatsiya mavjud bo'lib, bu asosan o'zlashgan nomlarda o'z aksini topadi. Fonetik meyorlarning buzilishi nurq apparatining genetik tuzilishi, noto'g'ri rivojlanishi, ijtimoiy kommunikativ muhit kabi omillar bilan bog'liq bo'lgani uchun sodir bo'ladi.

5) Odamlarning nomlari xalqlar tarixining bir qismidir. Ularda xalqlarning turmush tarzi, e'tiqodi, intilishlari, fantaziyasi va badiiy ijodi, tarixiy aloqalari o'z aksini topgan. O'zbek millatining aziz avliyolar, payg'ambarlarga ixlosi o'laroq shaxs nomlarini tanlash mental xususiyatidandir.

6) Mamalakatimiz hududidagi ismlar davrlarga bog'liq holda yuzaga kelgan deb aytish mumkin. Islom madaniyatining kirib kelishi, ommaga tanilishi, o'rganilishi yoki avj olishi bilan bog'liq zamonlar turlicha kechib, shaxs nomlarida u o'z aksini topgan.

7) Islom dinining fikx kitoblarida ota-onaning farzandga chiroyli va ma'noli ismlar qo'yishi xususida ko'plab ma'lumotlar keltiriladi. Zero, kelajakda farzand o'z ismidan boshqalar huzurida istihola qilmasligi, tinglovchining idrok etishiga salbiy ta'sir

etmasligi muhim hayotiy va ilmiy masaladir. Biroq ismlarning kelib chiqish sabalari turli-tuman, maqsad, sabab va niyatlar bilan bog'liq ekan, uni tizimlashtirish, muayyan qonun qoidarga bo'ysundirish muammo bo'lib qolaveradi.

8) Bugungi kunda o'zbek tilini asrab avaylash, har jihatdan uni rivojlantirish va o'zga til vakili ongida u xususda to'g'ri tasavvur hosil qilishiga ko'mak berish masalasi kun tarbida turar ekan, tilshunoslarga ismlarni ham ilmiy tadqiq qilish vazifasi yuklatiladi.

9) Ismlardagi leksik-semantik shakllarni kengayib ketishini oldini olish, o'zlashgan ismlarning fonetik xususiyatlarini tadqiq etish va ommaga taqdim etish muhim masala hisoblanadi. Har bir millatning o'ziga xos jihatlari bo'lgani kabi ismlari ham ajralib turishi muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy masaladir.

10) Ismlar kishining jamiyatdagi mavqei, kelajaganining yaxshi yoki yomon tomonga o'zgarishini ta'minlovchi eng muhim omil hisoblanadi. U qaysi tilgan olingan bo'lmasin eshitalishi yoqimli, idrok etilishi qulay bo'lishi kerak

11) O'zbek tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli xavflardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashgan ekan, bunday ismlarning yuzaga kelishida qadimiy totemistik, animistik tasavvurlar, ko'hna diniy aqidalar, sig'inishlarning boshqa xil ko'rinishlari, udumlar, keyinchalik esa islom dini ta'limoti bilan aloqador bo'lgan diniy, falsafiy qarashlar, e'tiqod va ishonchlar asosiy rol o'ynagan ismlarning lug'at tarkibidan katta sahifani egallashi tabiiy.

12) Har xil tipdagi ismlar, avvalo, leksik ma'no anglatuvchi va morfologik qo'shimcha izoh, niyat yoki nasl nasabga ishora qiluvchi belgilar asosida tasniflanishi va lug'atlardagi pozitsiyasini belgilash maqsadga muvofiq.

13) Milliy tafakkur millat ruhini yo ko'tarishga, yoki tushirishga xizmat qilar ekan, tug'ilajak bolalarga mazmun-mohiyati bolaning kelajagiga ta'sir qilishini inobatga olib ko'taringki ismlarni qo'yishimiz kerak. Buning uchun esa, xalqimiz

ongini ma'naviy-ma'rifiy, diniy-axloqiy, psixologik, ijtimoiy-siyosiy, lingvokulturologik bilimlar bilan boyitish chorasini izlash siyosiy tus olmog'i darkor. Shundagina millatimiz tafakkurida gender ustunliklar, farzand ajratishlar kamayadi, buning oqibatida esa ismlarni to'g'ri qo'yilishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmetov A. Turki Tilderinden tabu men evfemizmdr. Almati: G'o'lo'm, 1995. 176 b.
2. Begmatov E. O'zbek ismlari. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1998.
3. Begmatov E.A. Ism chiroyi. – Toshkent: Fan, 1994. 74-75 B.; Begmatov E.A. Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan, 1966.
4. Bekmurodov N. Eng chiroyli ismlar va ularning ma'nolari. Toshkent: Yangi kitob, 2019. – B.528
5. Berezovich E.L. Russkaya onomastika na sovremennom etape: kriticheskie zametki //Izvestiya Akademii nauk. ser. lit-ry i yaz. T. 60, № 6. Noyabr-dekabr 2001. S. 34-46.
6. Gryunebaum G.E. Klassicheskiy islam. Ocherk istorii (660-1258). M.: 1986.
7. Hamdamova Z. Ismlar ma'nosi. – Toshkent: Meruyus, 2014. – B.80
8. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, – 2005.
9. Kadirova X.B. O'zbek ismlarning leksikologik, leksikografik va lingvokulturologik muamolari//Ta'lim fidoyilari. Respublika ilmiy-uslubiy jurnal – 2022. <https://zenodo.org/record/7352033#.Y39iIZZByUk>
10. Kadirova X.B. O'zbek ismlarida evfemizatsiya va uning disfemizatsiyalashuviga oid muammolar. // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, ISSUE 10. Impact Factor: 5.947. ASI Factor = 1.7 October. 2022. https://oriens.uz/media/journalarticles/111_Xurshida_Kadirova_808-819.pdf
11. Kadirova X. Problemi peremeni evfemizmov i disfemizmov v xudojestvennom perevode. // ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal, AZƏRBAYCAN, Baku, 2021.St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>
12. O'razalieva G. Gunder va ayollar huquqi

madaniyati. Toshkent: 2009. – 136 b.

13. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. 27 B.

14. Pastuxova O.D. Ot evfemizma k disfemizmu. // Slovo, viskazivanie, tekst v kognitivnyy, pragmaticheskom i kulturologicheskom aspektax. Materiali VIII Mejdunarodnoy nauchnoy konferenčii, Chelyabinsk, 20-22 aprelya 2016 goda. Izvo: Ensiklopediya. S. 329-331

15. Qodirova X. O'zga tilli guruhlarda mental xususiyatga ega evfemizm va disfemizm hodisalarini tushuntirishning muhim jihatlari. // O'zbek tilini ikkinchi va xorrojij til sifatida o'qitish masalalari: muammo, yechim, istiqbollar. ToshDO'TAU, Respublika ilmiy-amaliy anjuman metriallari. – Toshkent, 2020 yil, 20 may.

16. Sadiqov Z. Qadimgi turkiy realiyalar tarjimasii. Monografiya / Namangan: «Vodiy Media», 2021. 120 bet.

17. Saralangan ismlar ma'nosi. Tuzuvchi Z. Hamdamova. – Toshkent: Meriyus, 2014 yil. 80 bet.

18. Yusuf Khass Hajib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko- Islamic Mirror for Princes, translated, with an introduction and notes, by Robert Dankoff. – Chicago- London: University of Chicago Press, 1983. – 52 p.

19. Аблитарова, Л. Э. Формирование имен и фамилий у различных народов, проживающих на территории Крыма / Л. Э. Аблитарова. — Текст : непосредственный // Современная филология : материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Уфа, март 2015 г.). — Уфа: Лето, 2015. — С. 19-21. — URL: <https://moluch.ru/conf/phil/archive/137/7511/>

20. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1998.

21. Бекмуродов Н. Исминг – истиқболинг. Чиройли исмлар тўплами. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б.376

22. Былкова, С. В. Из истории происхождения отечественных имён собственных / С. В. Былкова, В. А. Крат, Ю. Н. Носова. — Текст: непосредственный // Современная фи-

логия: материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Уфа, март 2015 г.). — Уфа: Лето, 2015. — С. 28-31. — URL: <https://moluch.ru/conf/phil/archive/137/7425/>

23. Зиёвудин Раҳим. Гўзал исмлар маъноси. – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б.408

24. Картышкина В.М. ЛИЧНОЕ ИМЯ В ИСТОРИЧЕСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ // Международный журнал экспериментального образования. – 2014. – № 6-2. – С. 144-145; URL: <https://expeducation.ru/ru/article/view?id=5265>

